



UDK: 902.03(575.1)

Yakubdjani MUXAMEDOV,

Doktor of philosophy in history, PhD senior teacher National university of Uzbekistan

E-mail: mukhamedov-2017@mail.ru

Urganch davlat universiteti professori, t.f.d O'. Abdullayev taqrizi asosida

DIPLOMACY RELATIONS OF THE WESTERN TURKIC KHAGANATE WITH TIBET

Annotation

The article scientifically highlights and analyzes the social, economic and political relations of the Western Turkic Khaganate with the Persian Sassanids, i.e., diplomatic correspondence based on written and archaeological sources as well as a number of studies by foreign and Uzbek scientists on this issue.

Key words: Western Turkish Khagan, yabgū, Turkish, Tibetan, Lhasa, diplomacy, Tang, suy-shu, tan-shu, Koshgar, Tun Yabgū Khagan, Khutan, Eastern Turkestan, Yettisuv, Ashina, Chinese, Fergana, tegin, teginshoks, turgash, Uyghurs.

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ЗАПАДНОГО ТЮРКСКОГО КАГАННАТА С ТИБЕТАМИ

Аннотация

В статье на научной основе освещены и проанализированы социальные, экономические и политические отношения Западно Тюркского каганата с Тибетами, т.е. дипломатические переписки на основе письменных и археологических источников, а также ряд исследований, зарубежных и узбекских ученых по данному вопросу.

Ключевые слова: Западнотюркский каганат, ябгу, каган, Тибет, Лхаса, Танг, Тун ябгу хахан, Суй-шу, танг-шу, Китай, Кошгар, тегин, Фергана, тегиншахи ашина, хутан, Восточный Туркестан, дипломатия, тургаши, уйгуры.

G'ARBIY TURK XOQONLIGI VA TIBET O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Annotatsiya

Maqolada G'arbiy Turk xoqonligining Tibet bilan olib borgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlari, elchilik aloqalari yozma va arxeologik manbalar asosida yoritilgan bo'lib, mazkur masalani tadqiq qilishda asosan xorijlik va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy qarashlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlari ilmiy asosda tahlil qilinib yoritilgan.

Kalit so'zlar: G'arbiy Turk xoqonligi yabg'u, turk, Tibet, Lxasa, diplomatiya, Tang, suy-shu, tan-shu, Koshg'ar, Tun Yabg'u xoqon, Xutan, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Ashina, Xitoy, Farg'ona, tegin, teginshoxlar, turgashlar, uyg'urlar.

Kirish. G'arbiy Turk xoqonligi Yevrosiyo mintaqasida qudratli davlatga aylanishida Xitoy, Eron, Vizantiya va Tibet kabi yirik davlatlar bilan olib borgan siyosiy munosabatlarning ahamiyati katta bo'lgan. Mazkur masalada G'arbiy Turk xoqonligi va Tibet o'rtasidagi aloqalarni tadqiq qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni tadqiq qilishda xorijlik olimlardan: E. Shavann, K. Bekvis, A. Rona Tas, E. Aydin, A. Volkan, P. Golden, B. Dotsonlar, rus tadqiqotchilaridan: V.V. Bartold, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorniy, N.I. Bichurin, A.G. Malyavkin, o'zbekistonlik olimlardan: A. Xodjaye, G'. Boboyorov, F. Djumanioyozova, M. Xatamova, singari mutaxassislarini asarlarini alohida tilga olib o'tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritishda, tarix fanida tan olingan tizimli qiyosiy tahlil, tarixiylik, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tibet xaqidagi dastlabki ma'lumotlar xitoy yilnomalarida, tibetcha bitiklarda, arab, fors, turk yozma manbalarida qisman bo'lsada saqlanib qolgan. Xitoy yilnomalarida (Suy-shu, Tan-shu) Tibetning geografik joylashuvi, tabiati, iqlimi, tog'lari, chegara hududlari, boshqaruvdagi sulolalari, qo'shni hududlar bilan olib borgan siyosiy munosabatlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Ushbu manbalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning ikkinchi choragigacha bo'lgan davrda xoqonlik va Tibet imperiyasi o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlaydi. Ularni xoqonlikning ikkala qanotida bo'lib o'tgan, Sharqiy Turkistonda Turk xoqonligi, Tibet va Xitoy o'rtasidagi chegara hududlar uchun kurash bilan bog'liq siyosiy voqealarga bag'ishlangan manbalar sirasiga kiritish mumkin.

Geografik joylashuvga ko'ra, Tibet o'lkasi G'arbiy Turk xoqonligi hududini Sharqiy Turkistondagi Koshg'ar va Xo'tanning xukmdorlari bilan siyosiy aloqalar olib borilgan

hududlardan xisoblanadi. Biroq, G'arbiy Turk xoqonligi va Tibet o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi alohida tadqiq qilinmagan. Mavzuni tadqiq etishda xorijlik olimlar, tadqiqotchi izlanuvchilar, turklarga oid ma'lumotlar qatorida qisman bo'lsada berib o'tganlar. Jumladan, xorijiy olimlardan E. Shavann, K. Bekvis, A. Rona Tas, E. Aydin, A. Volkan, P. Golden, B. Dotsonlar, rus tadqiqotchilaridan: V.V. Bartold, L.N. Gumilev, S.G. Klyashtorniy, N.I. Bichurin, A.G. Malyavkin, o'zbekistonlik olimlardan G'. Boboyorov, F. Djumanioyozova singari mutaxassislar atroflicha to'xtalib o'tganlar.

G'. Boboyorov yozma manbalar va xorijlik olimlarning asarlariga asoslanib, G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan Farg'ona va Tibet o'rtasidagi o'zaro ittifoq aloqalarining o'rnatilishi bilan bog'liq qarashlari[1], xaqida so'z yuritilsa, F. Djumanioyozova esa, Tibetning qo'shni Qobul teginshohlari, Hindiston va Xitoy bilan olib borgan o'zaro munosabatlarini xitoy manbalari qisman arab manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib o'z ilmiy mulohazalarini berib o'tadilar[2].

Tibet bo'yicha xorijlik olim K. Bekvis xitoy, tibet manbalaridagi ma'lumotlarga tayangan holda, Turk xoqonligining Tibet o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar borasida o'z ilmiy qarashlarni keltirib o'tgan. Jumladan Turk xoqonligining siyosiy aloqalari qatorida Tibet xaqida uning tashkil topishi va Turk xoqonligi bilan o'zaro aloqalariga doir ma'lumotlarini alohida tilga olib o'tish mumkin[3]. Rus tadqiqotchilaridan L.N. Gumilev, A.G. Malyavkinlar ham Turk xoqonligi bilan Tibet o'rtasidagi o'zaro diplomatik munosabatlar hususida, ayniqsa Xitoy bilan yuzaga kelgan xarbiy qarama qarshiliklar bo'yicha ma'lumotlar berib o'tilgan. Yana bir Venger olimi G. Uray asarlarida esa, G'arbiy Turk xoqonligi bilan Tibet o'rtasida tuzilgan ittifoq xaqidagi ma'lumotlar o'rin olgan[4]. Mazkur kelishuv bitimga muvofiq G'arbiy Turk xoqonligi va Xitoy o'rtasida yuzaga kelgan kurashlar bo'yicha o'rnatilgan kelishuv bitimi va uning natijalari xaqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Ilk o'rta asrlarda Tibet yirik siyosiy birlashmaga aylinishida qo'shni hududlar Turk xoqonligi, Xitoy sulolalari (Suy, Tan) Turgash xoqonligi (699-766) Uyg'ur xoqonligi (745-840)ning tasiri katta bo'lgan[5].

Tibetliklar turklar bilan yaqin qo'shnichilik aloqalarini qadimdan boshlab olib borganligi ma'lum. Xususan, "Hudud ul olam"da Xallux mamlakati Tibetning shimoliy qismida joylashgani berilgan. Idrisiyning "Nuzhat al-mushtak" asarida kimaklarning janubida to'quzog'uzlar, uning janubiy g'arbida Tibetdan keyingi o'rinda qarluqlar g'arbida xalajlar sharqiy qismida okean borligi keltirib o'tiladi[6].

G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan Farg'onaning Tibet bilan o'zaro diplomatik munosabatlarni olib borishi qo'shni Xitoyning g'azabini keltira boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan kuchayib borayotgan Turgashlar masalasi ham Farg'onaliklarni qiyin ahvolga solib qo'ygan edi. Mazkur qiyin vaziyatdan chiqish uchun tibetliklar bilan kelishuvi asosida xal qilish yo'lini tanlaganlar.

Tibetliklarni Sug'd bilan savdo madaniy aloqalari xususida Afrosiyob devoriy suratlarida xam so'z yuritilgan. Jumladan Sug'd xukmdori Varxuman xuzuriga kelayotgan elchilar qatorida tibetlik elchilar tasvirini uchrashi fikrimizni asoslashi mumkin.

Tibet hukmdorlari G'arbiy mintaqalarda o'z hokimiyatini tashkil etishda ashina qabilasidan foydalanganliklari qayd etilgan[7]. Xitoyliklarga qarshi kurashida o'zini «O'n O'q xoqoni» deb e'lon qilgan Ashina Tuchji Xitoyning An-si harbiy bo'limiga hujumlar tashkil qila boshlaydi[8]. Turkning xitoyga qarshi kurashini tibetliklar qo'llab quvvatlab turganlar.

Turk xoqonligi bilan Tibet o'rtasidagi aloqalar haqidagi ma'lumotlar keltirilganda, G'arbiy Turk xoqonligi "Durgu yo'l" nomi ostida berilgan. Bu atamada butun turklar o'lkasi ko'zda tutilganligi ma'lum bo'ladi. Tibet manbalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan L. Petch VII asrga oid voqealarni tahlil qilib "Drugu yo'l" bu Farg'ona, Yettisuv, Kobul va Turk xoqonligi tarkibiga kirgan hududlarga nisbatan qo'llanilgan atama sifatida talqin qilgan[9]. Shuningdek, xitoyliklarga qarshi kurashgan Ashina Tuyszi tibet manbalarida Ton ya-bgo khagan (To'n yabg'u-xoqon) nomida tilga olingan shaxs bilan bir ekanligini, u 694-695 yillar va 699-700 yillarning qishida Tibet hukmdoriga o'z iltifotini bildirib turgan va 700 - yilda Drugu yo'lga yuborilgan. Bir qator tadqiqotchilarga ko'ra, Ashina Tuyszi - Tun yabg'u-xoqon 700 - yildan boshlab Farg'onada qisqa muddat hukmdorlik qilgan, degan mulohazalarini bildirib o'tganlar. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, To'n yabg'u-xoqon tibet manbalarida Ashina Tuyszi nomi ostida uchraydi degan fikrga kelish mumkin.

Farg'onada Tun-yabg'u xoqon o'z boshqaruvini qo'lga olib Xitoyliklarga qarshi kurashganligi va ushbu kurashda Tibetliklar yordamidan foydalanganligi qayd etilgan. Mazkur masala bo'yicha G. Boboyorov tibet manbalari va xitoy

yilnomalaridagi ma'lumotlarga asoslangan holda, Tun-yabg'u xoqon Farg'onada ma'lum vaqt davomida o'z boshqaruvni qo'lga olib, Tibetliklar bilan kelishgan holda Xitoyga qarshi harbiy xarakatlar olib borganligini aytib o'tgan[10]. Tun Yabg'u xoqon Tibetning dastagi bilan Sharqiy Turkiston va Yettisuvdagi Xitoyga qarashli «To'rt garnizon»ni qo'lga kiritishga qaratilgan harakatlarga boshchilik qiladi[11].

Tibet tashqi siyosatida Tan sulolasi bilan Xitoyning sharqidagi yyerlar uchun kurashlar olib borgan. Tibetliklar bilan turklarning yaqinlashuviga tibetliklarning xitoy ta'siriga tushib qolishi sabab bo'lgan.

Tibetliklar asta sekinlik bilan Xo'tanni so'ngra Tarim daryosi atrofidagi hududlarni egallab, yirik davlatga asos soladilar. Poytaxt shahar sifatida Lxasa tanlanadi. Buning natijasida Tibet tarkibiga Pomir tog'lari, Tarim vohasi, sharqda Xitoyning Gansu va Yunnan provensiyalari, janubda Bengaliya va Ximolay tog'larigacha bo'lgan hududlarga qadar kengayib borgan[12].

G'arbiy Turk xoqonligi bilan Tibet o'rtasidagi kelishuv natijasida ayni shu davrda kuchayib borayotgan Turgash xoqonligi va xitoyliklarga qarshi kursh olib borish uchun ittifoq tuzilgan. Tibet bilan munosabatlarni nafaqat Farg'ona, balki Toxariston ham o'rnatgan. Xususan, 704 - yillarda Toxariston arab xalifaligiga qarshi kurashishda Tibetliklardan yordam oladilar. Arablarga qarshi tibetliklar va turklar o'zaro birgalikda harbiy xarakatlar olib borishgan[13]. R. Gibb asarida arablarga qarshi kurashgan "turk-xaytal" tibetliklarni kurashi haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan[14].

Ilk o'rta asrlar davrida G'arbiy Turk xoqonligi Tibet, Xitoy munosabatlarida xalqaro savdo munosabatlarini olib borishda tranzit yo'llar katta o'rin tutgan. Jumladan, O'zgandan Tyanshandagi tog' dovonlari orqali Sharqiy Turkistonga olib boruvchi yo'llardan samarali foydalanilgan. Bu davrda O'zgandan Yassi dovonlari orqali Arpa vodiysiga, Qoraqayin otbosh va Norin daryolari vodiysiga o'tgan yo'l bo'lib, otbosh shahridan Farg'ona vodiysigacha 6 kunlik yo'lni tashkil qilgan. Ushbu yo'l bo'ylab savdogarlar Otboshidan Tibetgacha bo'lgan masofa ham shuncha kunlik yo'lni bosib o'tganlar[15].

Tibetliklar xalqaro savdo aloqalarini olib borishda boshqa xalqlardan qolishmagan. Xususan "Tarixi Rashidiy" asari muallifi o'rta asrlarda tibetlik ko'chmanchilar (ularni janpalar deb atashgan) yuk solingan maxsus xaltalarni qo'ylarning yelkasiga ortib, Xitoy va Hindistonga maxsulotlar olib borganligi haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni aks etishi, fikrimizni aoslaydi[16].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, G'arbiy turk xoqonligi Tibet bilan gohida do'stona yoki dushman kayfiyatida bo'lganligi ham ma'lum. Tibet hududi asosan tog'lardan iborat bo'lganligi sababli, mintaqaning o'ziga hos etnomadaniyati shakllanishiga hizmat qilgan. G'arbiy Turk xoqonligi va Tibet o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining o'rnatilishi, ikki davlat uchun ham manfaatli bo'lgan, deya xulosa chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Бобоёров Ф. Фарғона Фарбий Турк хоқонлиги чоғида (сиёсий тарих, тангалар битиклар) – Тошкент: Фан, 2023. – Б. 89-96.
2. Djumaniyozova F. Beruniy tibetdagi turklar to'g'risida. // Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning 1050 yillik yubileyiga bag'ishlangan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – b. 244-249.
3. Beckwith. I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey: Princeton University Press 1993.
4. Uray G. The Old Tibetan Sources of the Central Asia up to 751 A.D.: a Survey // prolegomena to the History of pre-Islamic Central Asia. Ed.by J. Harmatta.- Budapest. 1979. – S. 281.
5. Бобоёров Ф. Фарғона Фарбий Турк хоқонлиги чоғида (сиёсий тарих, тангалар битиклар) – Тошкент: Фан, 2023. – Б. 91.
6. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Arabchadan A. Rasulev, Y. Hakimjonov va. Jalolov G' tarj. Mas'ul muharrir: Jalolov G' va Irisov A. T. 2. Toshkent, 1965., Djumaniyozova F. Beruniy tibetdagi turklar to'g'risida. // Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning 1050 yillik yubileyiga bag'ishlangan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – b. 245.
7. Малявкин А. Г. История Восточного Туркестана в VII–X вв. // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. Очерки истории. Под ред. – С. Л. Тихвинского и др. – М.: Наука, 1988 – С. 321.
8. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х тома М.:Л, том I. 1950 – С. 294.
9. Uray G. The Old Tibetan Sources of the Central Asia up to 751 A.D.: a Survey // prolegomena to the History of pre-Islamic Central Asia. Ed.by J. Harmatta. - Budapest. 1979. – S. 281. Бобоёров Ф. Фарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Янги нашр, 2008. – Б. 82.
10. Бобоёров Ф. Фарғона Фарбий Турк хоқонлиги чоғида (сиёсий тарих, тангалар битиклар) – Тошкент: Фан, 2023. - Б.95.
11. Бобоёров Ф. Фарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми – Тошкент: Янги нашр, 2008. – Б. 82.

12. Beckwith. I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey: Princeton University Press 1993. – Pp. 30-37, Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми – Тошкент: Янги нашр, 2008. – Б. 92.
13. Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey: Princeton University Press, 1993. – Pp. 66
14. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. Новосибирск, - 1989. С.24.
15. Сагдуллаев А. Мавлонов У. Махкамова Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. – Тошкент: Akademiya, 2012. – Б. 45.
16. Мирза Мухаммад Хайдар Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского Урунбаева А., Джалиловой Р.П., Епифановой Л.М. Примечание и указатели Джалиловой Р.П. и Епифановой Л.М. – Ташкент: Фан, 1996. – с. 518-519, Мавланов У.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Фан, 2016. – Б. 253.